
Yoshlar masalalari muhokama qilindi

Rishton tumanida yoshlar bilan ishlash, ularning bandligini ta'minlash, muammolarini hal etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha mahallalardagi yoshlar yetakchilari ishtirokida Rishton tuman hokimligi majlislar zalida tahliliy tanqidiy yig'ilish o'tkazildi.

O'tkazilgan yig'ilishda mahallalardagi yoshlar yetakchilari tomonidan "Yoshlar daftari"ni yuritilishi va daftarga kiritilgan yoshlarga ko'rsatilayotgan yordamlar, Yoshlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida o'tkazilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, yoshlar o'rtasida sodir etilayotgan jinoyatlarni oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar taxlil qilindi.

O'tkazilgan yig'ilishda Yoshlar masalalari bo'yicha hokim o'rinbosari Z.Umarov, Yoshlar ishlari agentligi Rishton tuman bo'limi boshlig'i M.Alijonov, Xokim yordamchisi R.Saidovlar ishtirok etishdi.

2022-08-17 13:02:35